

**YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH
TARTIBI**

Komilova Laylo

Shahrisabz tibbiyot texnikumi

Milliy istiqlol va huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik shaxs va jismoniy shaxs deb nega ayttilishi va ular to'g'risidagi tayanch ma'lumotlar. Soliq nimaligi va uning turlari. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa solish tartibi va tamoyillari haqida ma'lumotlar kiritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Huquq, shaxs, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, majburiyat, mulk, soliq.

Annotation: why this article says a legal entity and an individual, and the basic information about them. What is the tax and its types. Information on the procedure and principles of taxation of legal entities and individuals is included.

Keywords: Law, person, legal entity, individual, obligation, property, tax.

Yuridik shaxs – fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining aniq sub'ektidir. Keng ko'lamma tushuntiradigan bo'lsak, yuridik shaxs bu fuqarolik huquq va majburiyatlarining sub'ektlari hisoblanuvchi korxona, muassasa, tashkilotlar va shaxslar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, yuridik shaxslar o'zining mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol- mulkka ega bo'lган hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga

ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxslar mustaqil balans va smetaga ega bo'lishlari kerak.

Jismoniy shaxs – huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi hisoblangan alohida fuqaro (chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar)ni ifodalovchi tushunchadir. U jamoaviy tuzilma bo'lgan yuridik shaxsdan farq qiladi. Ya'ni: jismoniy shaxs bemalol o'z nomidan ish yuritadi – faoliyat yurgizishi uchun jamoaviy tuzilma – tegishli firma yoki korxonani qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi majburiy emas. Jismoniy shaxs mulkka oid huquqi asosida mol- mulkka ega bo'lishi, uni meros qilib olishi mumkin, shuningdek vasiyat qilib ham qoldirishi mumkin. Bankda o'z jamg'armalarini ham saqlash va boshqa turli xil huquqlarga ega.

Soliq – davlat paydo bo'lgandanoq vujudga kelgan. Davlatlarning faoliyat ko'rsatishida eng asosiy moddiy omil bu soliqlardir. Soliqlarsiz davlatlar faoliyat ko'rsata olmaydi. Shu sababli soliqlarning amal qilishi jamiyatda ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o'zlariga yuklangan soliq qonunchiligi hujjatlarida keltirilgan vazifalarni to'laqonli bajarishlari uchun ham nazariy jihatlarini, ham yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy mazmunini va ob'ektiv zarurligi, umumiy asoslarga ega bo'lgan soliq qonunchiligi tamoyillari, soliqlar va majburiy to'lovlar tizimi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning turlari va yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmining amaldagi holatini chuqur egallagan bo'lishi zarur. Va buning uchun esa yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani ham yaratilgan.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani pul munosabatlarini ifodalovchi soliqlarning mohiyati; ularning to'g'ri va egri soliqlarga bo'linishi; budjetga tushish nuqtai nazaridan umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlarga bo'linadi;

yuridik shaxslarning o’z tushunchasi va ularning soliqlari tarkib va tartibi; yuridik shaxslardan dan olinadigan soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustahkamlashdagi ahamiyati; yuridik shaxslarning soliqlarini budgetga to’lash tartibi; yuridik shaxslar foydasidan soliq; daromadga soliq tushunchasi; soliq hisobini tuzish va ubi taqdim etish tartibi, hamda to’lash muddatlari; qo’shilgan qiymat solig’i tushunchasi va uni hisoblash usullari ; soliq to’lovchilarni guruhlash kabi tushuncha va tamoyillarni o’z ichiga oladi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish bir nechta tamoyillarga asoslanib tuzilgan:

- Soliq solishning majburiyligi;
- Soliq solishning aniqligi;
- Soliq solishningadolatliligi;
- Soliq tizimining yagonaligi;
- Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarining oshkorali;
- Soliq to’lovchining haqligi prezumpsiyasi.

Soliq solishning majburiyligi - har bir shaxs soliq qonunchiligidagi asoslanib belgilangan soliqlar va boshqa turdagil majburiy to’lovlarini to’lashlari shart. Va hech bir fuqaro, yuridik shaxs yoki jismoniy shaxsning zimmasida soliq qonunchiligidagi kiritilmagan va uning normalarini buzadigan holdagi soliqlar va boshqa “majburiy” to’lovlar to’lashga majbur emas.

Soliq solishning aniqlik tamoyili – eng asosiy tamoyillaridan biri bu soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar aniq bo’lishi shart. Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlari hamma soliq to’lovchiga qaysi soliqni va boshqa majburiy to’lovlarini, qachon, qancha, va qay tartibda to’lashi kerakligini aniq biladigan holda keltirilgan bo’lishi lozim.

Soliq solishningadolatlilik tamoyili – soliq solish bu umumiydir.

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarga oid imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo’lishi zarur. Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha yakka tartibdagi xusuxiyatli imtiyozlar berilishiga yo’l qo’yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar o’zida turli xil kamsitish xususiyatlarini mujasammalashtirmagan bo’lishi shart. Masalan, ijtimoiy, milliy, diniy, irqiy va boshqa shu kabi mezonlardir.

Soliq tizimining yagonaligi tamoyili – O’zbekiston Respublikasining barcha hududlaridagi soliq to’lovchilarga nisbatan soliq tizimi yagona.

Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliq tamoyili – soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normative-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shartdir.

Soliq to’lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyili – soliq to’g’risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf qilib bo’lmaydigan hamma qarama-qarshilik va noaniqliklar soliq to’lovchi foydasiga talqin qilinadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soliqlari ham mavjud va ularga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i;
2. Qo’shilgan qiymat solig’i;
3. Aksiz solig’i;
4. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to’lovlar;
5. Suv resurslaridan foydalanganlik;
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i;
8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i;
9. Yagona soliq to’lovi;
10. Yagona yer solig’i;
11. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo’yicha qat’iy belgilangan

soliq.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, barcha shaxslarga birdek belgilangan soliqlar birdek belgilangan. Va barcha soliqlar o’z tartib qoidalariga ega, hamda ularga hamma birdek amal qiladi.

Qo’llanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jismoniy_shaxs
2. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Cho‘lpon nom idagi n ashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent — 2013
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yuridik_shaxs
4. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlilish-kursishi/item/12493-soliqlar-tizimi-asoslari>